

**2021-yilda amalga oshirilgan import hajmi hamda importni qisqartirish
bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida**
MA’LUMOT

I. Kombinat tomonidan amalga oshirilgan import tahlili.

2021-yilda kombinat bo‘yicha mahsulot va xizmatlar importi hajmi **286,5** mln. dollarni tashkil etdi. Bunda import hajmi 2020 yilga (428,0 mln. dollar) nisbatan 141,5 mln. dollarga yoki 33,1 % ga qisqardi.

Navoiy KMK mahsulot va xizmatlar importi tarkibi quyidagicha:

1. mashina va uskunalar - **222,6** mln. dollar (ulushi 77,7 %), shu jumladan:
 - kon va shaxta samosvallari 90,0 mln. dollar;
 - ekskavatorlar 28,3 mln. dollar;
 - maxsus transport va temir yo‘l texnikalari 12,9 mln. dollar;
 - maydalash uskunalar 66,4 mln. dollar;
 - burg‘ulash uskunalar 6,6 mln. dollar;
 - boshqa mashina va texnologik uskunalar 18,4 mln. dollar;
2. butlovchi va ehtiyot qismlar - **15,0** mln. dollarda (5,2 %), shu jumladan:
 - ichki yonuv dvigatellari va ularning ehtiyot qismlari 10,3 mln. dollar;
 - shu jumladan, ishlatishning kafolat muddatlarida va beg‘araz etkazib berilgan boshqa butlovchi va ehtiyot qismlar 4,7 mln. dollar;
3. xom ashyo va materiallar - **11,1** mln. dollarda (3,9 %) shu jumladan:
 - portlashlarni yuzaga keltiruvchi vositalar 9,5 mln. dollar;
 - kimyoiy mahsulotlar va reagentlar 0,9 mln. dollar;
 - boshqa mahsulotlar 0,7 mln. dollar).
4. xizmatlar - **37,8** mln. dollar (13,2 %).

2021-yilda kombinatning asosiy faoliyatiga taalluqli bo‘lmagan, Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlar importi, shu jumladan offshor hududlardan import amalga oshirilmadi.

II. Kombinat bo‘linmalari quvvatlarida mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish.

2021-yilgi Mahalliylashtirish dasturi doirasida jami 154 ta loyiha bo‘yicha **442,2** mld. so‘mlik yoki yil proqnoziga nisbatan 102,2 % ga mahsulotlar ishlab chiqarildi va 2020 yilga nisbatan o‘sish sur’ati 125,5 % ni tashkil etdi. Shundan, 71 ta yangi loyiha bo‘yicha 82,2 mld. so‘mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar o‘zlashtirildi.

2021-yil davomida 55x65 va 40x70 o‘lchamli sharli tegirmon, ekskavatorning yurish aravachasi, reduktori, kovshlari va rukoyatkasi, vertikal-tokarlik hamda lentali, gaz-kislород va plazmali metall kesish dastgohlari, to‘g‘ridan-to‘g‘ri kon ishga tushirgichi, mobil lentali ta’minlagichi, gidrotsiklon qurilmasi, karer avtosamosvallari va mexanizmlarining, texnologik uskunalarning bronza quymalardan ehtiyot qismlari, nasoslar, TPE 200/460 kuch bloki kabi yangi turdag'i mahsulotlar mahalliylashtirildi.

Bundan tashqari, Mahalliylashtirish dasturida ko‘zda tutilmagan 124,9 mlrd. so‘mlik 342 turdag'i import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Kombinat tomonidan ishlab chiqariladigan hamda boshqa korxona va tashkilotlarga sotish uchun mo‘ljallangan 208 ta nomdagi mahsulotlar va xizmatlar elektron kooperatsiya portaliga joylashtirildi.

2021-yilda sanoat kooperatsiyasi doirasida 326 ta korxona va tashkilotlar ehtiyojlari uchun 110,6 mlrd. so‘mlik 386 nomdagi mahsulotlar ishlab chiqarildi va sotildi.

Jumladan, “Gomelskiy zavod stanochnykh uzlov” kompaniyasiga (Belarus) 39,2 ming dollarlik stanina eksporti amalga oshirildi.

2021-2022-yillarda “NMZ” IChBda maydalash-saralash qurilmasi uchun yangi turdag'i mahalliylashtirilgan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni o‘zlashtirishni tashkil etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” bo‘yicha ishlar 2022-yilda ham davom ettiriladi.

Shuningdek, 2022-yil uchun yangi turdag'i xomashyo, material, ehtiyyot qism va butlovchi buyumlar ishlab chiqarish hamda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo‘yicha dastur loyihasiga kombinat tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha 104 ta loyiha takliflari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga taqdim etildi.

III. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va kooperatsiya hisobiga importni optimallashtirish.

2021-yilda sanoat kooperatsiyasi doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan mahsulotlar hajmi **4 272,2** mlrd. so‘mni va 2020 yilga nisbatan 122,2 %ni tashkil etdi.

Shu jumladan, Elektron kooperatsiya portali doirasida **2 095,8** mlrd. so‘mlik 2 392 ta shartnoma bajarildi va 2020-yilga (1 803,5 mlrd. so‘m) nisbatan o‘sish sur’ati 116,2 %ni tashkil etdi.

Kombinatning 2021-yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ga asosan, import bo‘yicha olib kiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobiga importni qisqartirishning maqsadli ko‘rsatkichlari **84,3** mln. dollarni tashkil etdi.

Bundan tashqari, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlanadirish hisobiga importni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar doirasida qo‘srimcha ravishda umumiyligi qiymati 23,5 mln. dollar bo‘lgan 56 turdag'i import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar xarid qilindi.

2021-yilda mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan hamkorlikda ularning quvvatlarida emulgator, gidravlik moy (“Chilon Lubricants” MCHJ), reaktor aralashtirgichi (“Gidro Stanko Servis” MCHJ), silindrsimon tirqishli g‘alvirlar (“Navpromlitmash” MCHJ), texnikalarga radiatorlar (“Uchquduq Prom Zona” MCHJ), moy filtrlari (“Oil Filter Technology” MCHJ), evropalet, filtrlovchi plitalar (“SK Sanoat Kompaniyasi” MCHJ, “Evro Prom Lider” MCHJ), silfon (“Texno Rezina” MCHJ), quritish shkaflari (“Karmana-Sharqona Invest” MCHJ) kabi yangi turdag'i import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar o‘zlashtirildi.

Mahalliy korxonalar tomonidan o‘zlashtirish uchun import xom ashyo va materiallar to‘g‘risidagi ma’lumotlar kombinat veb-sayti (<https://www.ngmk.uz/>) va kombinatning Elektron kooperatsiya portalidagi onlayn-ko‘rgazmasida (<http://ngmk.cooperation.uz/>) joylashtirildi.

SHuningdek, kon-metallurgiya sanoati uchun zarur bo‘lgan kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini (“Navoiyazot” AJda tashkil etilayotgan texnologik kimyo klasterini hisobga olgan holda) ishlab chiqishda inobatga olinishi maqsadida, oltin va uran mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun Navoiy KMKning, shu jumladan import kimyoviy mahsulotlarga bo‘lgan 2021-2026-yillardagi ehtiyoji, shuningdek portlashlarni initsirlash vositalariga bo‘lgan ishlab chiqarish talabi “O‘zkimyosanoat” AJga taqdim etildi.

Bundan tashqari, 10 turdagи metall mahsulotlarini mahalliylashtirish bo‘yicha takliflar “O‘zmetkombinat” AJ, “Toshkent quvur zavodi” MCHJ QK, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va “Toshkent metallurgiya zavodi” MCHJga yuborildi. Kombinat tomonidan “O‘zmetkombinat” AJ, “Toshkent quvur zavodi” MCHJ QK va “Toshkent metallurgiya zavodi” MCHJdan yangidan o‘zlashtirilgan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar xarid qilindi.

Kombinat tomonidan xarid qilinishi ko‘zda tutilgan, kelib chiqishi import bo‘lgan tovarlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Elektron kooperatsiya portalining “Import muqobili bo‘yicha so‘rov yuborish” bo‘limiga joylashtirish orqali ularni o‘zlashtirish bo‘yicha potensial ishlab chiqaruvchilarni aniqlash bo‘yicha ishlar olib borildi.

2021-yilning 22-24-aprel kunlari Navoiy mashinasozlik zavodida metallurgiya, energetika, kimyo sanoati va qurilish materiallari sohasi korxonalari ishtirokida “Respublika tarmoqlararo kooperatsiya sanoat yarmarkasi” o‘tkazildi. Navoiy KMK 2021-yil 29-30-aprelda Urganch, 11-12-noyabrda Qarshi va 25-26-noyabrdada Chirchiqda o‘tkazilgan yarmarkalarda ishtirok etdi. Ushbu yarmarkalarda mahsulotlarni xarid qilish bo‘yicha 631,2 mlrd. so‘mlik shartnomalar tuzildi.

2021-yilning 14-18-dekabrdada Toshkent shahrida o‘tkazilgan Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi doirasida kombinat 281 nomdagi o‘z mahsulotlari va import tovarlar namunasi bilan ishtirok etdi. 2022 yilda ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun mahsulotlar xarid qilish maqsadida, ushbu yarmarkada cooperation.uz portalni orqali 106 ta mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan umumiy qiymati 955,4 mlrd. so‘m bo‘lgan 344 ta shartnomaga tuzildi. Shuningdek, Navoiy KMK tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni realizatsiya qilish bo‘yicha 1,2 mlrd. so‘mlik 8 ta shartnomani imzolandi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi “shataffa olish” mexanizmi doirasida import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha Navoiy KMK tomonidan jami 86 ta memorandum tuzildi.

Kombinat tomonidan memorandumlar ijrosini ta’minlash maqsadida, import qilingan mahsulotlarni o‘zlashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqildi. “Yo‘l xaritalari”ga asosan, kombinatda konstrukturlik va texnologik hujjatlarni ishlab chiqish va taqdim etish, texnik maslahat va amaliy ko‘mak berish, shuningdek

birgalikda mahsulotlar sifatini talab darajagacha etkazish ko‘rinishida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga amaliy yordam ko‘rsatildi.

“SHatakka olish” mexanizmini qo‘llash orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda pnevmatik perforator, grafitlangan elektrod, faollashgan ko‘mir, sulfit-spiritli barda, depressor, “Valeron” maxsus plyonkasi, kengaytirilgan ftoroplast tolasidan to‘qilgan tiqin kabi mahsulotlarni mahalliy lashtirish bo‘yicha ishlar 2022-yilda davom ettiriladi.